XALÍQ DEPUTATLARÍ ÁMIWDÁR'YA RAYONLIQ KEŃESINIŃ SHESHIMI

XALQ DEPUTATLARI AMUDARYO TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-jıl 5-oktabr VI-80-128-13-181-K/24 Ámiwdárya rayonı

Amudaryo tumanidagi Qipchoq ovul fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

Geografik obyektlarning Davlat reyestriga tumanda mavjud barcha geografik obyektlar nomlari kiritilgan. Lekin Respublika Toponimika xizmati tomonidan o‘tkazilgan inventarizatsiya davrida bir hududiy birlikda, ya’ni bitta tumanda Qipchoq nomi bilan atalayotgan ikkita hududiy birlik – Qipchoq ovul fuqarolar yig‘ini va Qipchoq shaharcha fuqarolar yig‘ini mavjud ekanligi aniqlangan.

Ushbu holat bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2024-yil 4-aprel kungi 11-07/5-04/220-sonli xati yuborilgan. Mazkur xatda ko‘rsatilganidek, “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi 303-sonli Qonunining Geografik obyektlarning nomlariga doir talablar keltirilgan 4-moddasiga to‘g‘ri kelmasligi sababli geografik obyekt nomini o‘zgartirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan.

2024-yil 9-sentabrdagi “Qipchoq ovul fuqarolar yig‘ini” nomini “Jayhun ovul fuqarolar yig‘ini” deb o‘zgartirish yuzasidan Amudaryo tumani hokimining 01-422-sonli xatiga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlariAmudaryotuman Kengashi **qaror qiladi**:

1. 2024-yil 9-sentabrdagi “Qipchoq ovul fuqarolar yig‘ini” nomini “Jayhun ovul fuqarolar yig‘ini”, deb o‘zgartirish yuzasidan Amudaryo tumani hokimligining 01-422-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi “Qipchoq ovul fuqarolar yig‘ini” nomini “Jayhun ovul fuqarolar yig‘ini” deb o‘zgartirish taklifi ma’qullansin.

3. Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (Sh.Bo‘ranov) Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (A.Yuldashev), Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi hamda aloqador tashkilotlar bilan birgalikda mazkur qaror asosida Qipchoq ovul fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish bilan bog‘liq tegishli tashkiliyishlarni amalga oshirsin.

4. Mazkur qaror tuman gazetasi, hokimlikning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi o‘rinbosari



YESHNIYOZOV
G‘ULOMJAN
REIMBAYEVICH